
NISHONBI AYA ENDI ZAMONAVIY UYDA YASHAYDI

???? Avval xabar berib o'tganimizdek, Farg'ona viloyati Rishton tumani Xurramobod MFY Jumanazar Sultonov raisi tashabbusi bilan ushbu mahallasida yashovchi 82 yoshli Nishonbi aya Qodirovaga har tomonlama qulaylikka ega bo'lgan yangi uy qurib berish ishlari boshlab yuborilgan edi.

* Xurramobodliklar qisqa 15 kun mobaynida eski uyini buzib tashlab, barcha qulayliklarga ega bo'lgan yangi uy qurib, uni to'liq yangi jihozlar bilan jihozlab, bugun tantanali ravishda, bayramona kayfiyatda Nishonbi ayaga topshirishdi. O'zbekona milliy urf-odatlarimizga muvofiq qur'on tilovatlari o'qildi, mahalla oqsoqollari, nuroniy otaxonu-onaxonlar va boshqalarga bir piyola choy ustida suhbat qurishdi. Bunday saxovatli tadbirlarni davom ettirish borasida kelishib olishdi.

✍️- Ahillikda gap ko'p ekan, ko'rib turganingizdek qisqa fursat ichida katta hajmdagi ish bajarildi. Shu o'rinda mening tashabbusini qo'llab-quvvatlagan barcha mahalladoshlarimga minnatdorlik bildiraman, - dedi Xurramobod MFY raisi Jumanazar Sultonov.

- Ko'pdan quyon qochib qutula olmas-degan gaplar bejizga aytilmagan ekanligini yana bir bor guvohi bo'ldik. Xurramobodliklarning bu tashabbusi barcha uchun ibrat bo'lishi kerak. - dedi tuman ma'naviyat va ma'rifat bo'limi rahbari D. Dodoboeva. Mahalla ahli yangi uy - uy kurdiga har xil kerakli bo'lgan sovg'alar bilan kelishib, Nishonbi onani benihoyat xursand etishdi. Yig'ilganlarning barchalari yurtimiz tinchligi, osoyishtali, bag'rikeng xalqimizning saxovatpesha ishlariga duolar qilishdi.

2024-09-27 10:12:25